

## Tayanch sinflardagi morfologik bilimlar maksimumi soʻz turkumlari kesimida

Nodira Erkin qizi Sanoyeva

coouotvvo@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada til taʼlimining maqsadi, vazifalari, tilning kishilik jamiyatida beqiyos oʻrni atroflicha yoritilgan boʻlib, tayanch sinflarda bilimlarni maksimum va minimumga ajratish omillari, samaradorligi misollar va dalillar bilan asoslangan. Ushbu bilimlar silsilasi boʻyicha ayrim mashq va topshiriqlardan namunalari keltirilgan. Mavzu borasidagi fikrlar chet tillari (ingliz tili) bilan taqqoslangan holda koʻrib chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** taʼlim mazmuni, bilimlar maksimumi, soʻz turkumlari, til samaradorligi

## The maximum of morphological knowledge in elementary grades is in the segment of word groups

Nodira Erkin kizi Sanoyeva

coouotvvo@gmail.com

Chirchik State Pedagogical University

**Abstract:** In this article, the purpose and tasks of language education, the incomparable role of language in the society of the individual are described in detail, the factors of maximum and minimum separation of knowledge in primary classes, its effectiveness is based on examples and evidence. Examples of some exercises and assignments for this series of knowledge are presented. Opinions on the topic are compared with foreign languages (English).

**Keywords:** educational content, maximum of knowledge, word groups, language efficiency

Maʼlumki, til taʼlimining samaradorligi, uni zamonaviylashtirish, koʻp jihatdan maktab darsliklarida beriladigan oʻquv topshiriqlari, sinfdan tashqari bajariladigan mashgʻulotlar bilan bogʻliq. Ona tili taʼlimi mazmunining bugungi kundagi bosh maqsadi ham tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalana olish, uning kishilik jamiyatida tutgan oʻrnini oʻquvchilarga singdirish, ularni ogʻzaki va yozma nutq sharoitiga koʻra qoʻllay olish, imlo savodxonligi va matn yaratish koʻnikmalarini

takomillashtirishdir. Ammo, ona tili ta'limi mazmunini maksimum va minimum bilimlarga ajratmas ekanmiz, ushbu maqsad yillar davomida amalga oshmasligi tabiiy. Ta'kidlash joizki, chet tillari, ingliz tilidan xalqaro yoki milliy sertifikat imtihonlarida ham bilimlar maksimum va minimumga ajratilgan. Ya'ni, imtihon topshiradigan abituriyentning o'sha til bo'yicha berilgan audioni eshitib tushunish, matnni o'qib tushunish, yoza olish, gapirish ko'nikmalariga ega bo'lishi tekshiriladi va bular boshqa soha vakillari uchun ingliz tilida bilimlar minimumi, yuqoridagi ko'nikmalar bilan birga yanada kengroq mavzularni qamrab olishi shu soha vakillari uchun ingliz tilida bilimlar maksimumi hisoblanadi. Avvalo, bilimlar maksimumi va minimumi so'zlari ta'limda qanday ma'no va maqsadlarda ishlatilishini aniqlash kerak.

Bilimlar maksimumi ta'lim oluvchining muayyan fan va soha bo'yicha egallash darajasi eng yuqori bo'lgan bilimlar silsilasidir. Sodda qilib aytganda, ma'lum yo'nalishda mutaxassis bo'lishni maqsad qilgan izlanuvchilar tomonidan bilinishi shart bo'lgan bilimlar tizimidir. Masalan, adabiy tur va janr, badiiy san'atlar, aruz va unga doir nazariy terminlarni mukammal bilish faqat adabiyotshunoslik sohasi vakillari uchun shart bo'lgani kabi, tilshunoslik mutaxassislari fonema, sema, leksema, nomema, lison, me'yor, hosila kabi tilga oid atama va terminlarni bilish tilshunoslik mutaxassislari uchun juda muhimligi ko'zda tutiladi. Chunki maktabda ona tili o'qiydigan hamma o'quvchi ham kelajakda tilshunos yoki adabiyotshunos bo'lavermaydi.

Bilimlar minimumi - til ta'limini olayotgan har bir o'quvchi ham amaliy, ham nazariy jihatdan bilishi juda kerakli bo'lgan ma'lumotlar tizimidir. Ushbu bilimlar kishining qaysi soha vakili bo'lib yetishishidan qat'i nazar insonning bilim, ko'nikma va malakasini namoyon qiladigan, turli salohiyatlarini aniqlaydigan manbalardir. Masalan, matematika sohasida qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish va hokazolar, ona tilida chiroyli va mazmundor nutq tuza olish, fikrni erkin va ta'sirchan yetkazishda lug'at boyligi, og'zaki va yozma nutqda urg'u, pauzaning ahamiyati, talaffuz me'yorlarini egallash ko'nikmalarini bilimlar minimumi sifatida ko'rsatish mumkin.

Ta'lim mazmunida maksimum va minimumni belgilash omillari

- o'quvchi o'rgangan bilimlarini amalda o'rinli qo'llash;
- bolaning tafakkur mahsulini rivojlantirish;
- grammatizmdan voz kechib, o'quvchini zarur bilimlar tizimi asosida o'qitish;
- til samaradorligiga erishish;
- kelajakda "bilimli" emas, ijodkor shaxsni yetishtirish;
- ta'lim oluvchini har qanday sohada induktiv (tahlil) metodiga o'rgatish;
- darsni o'quv mashg'ulotlaridan to'g'ri foydalangan holda tashkil etish kabilardan iboratdir.

Tayanch sinflarda berilgan so'z turkumlari bo'yicha bilimlar maksimumi quyidagi tartibda belgilanadi:

Fe'l so'z turkumi bo'yicha:

- barcha turkiy tillardagi kabi fe'l so'z turkumi eng murakkab va hajm jihatidan katta grammatik toifa ekanligini tushunishi, nutqni fe'llar bilan boyitish, ayniqsa, fe'lning ko'chma ma'nolaridan to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish o'quvchilarning nutqini boyitishga ijobiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

- fe'lning ma'noviy guruhlari, vazifa shakllari, ularning uslubiyati, imlosi, jonli tildagi qo'llanilishi kabilar yuzasidan nazariy va amaliy ma'lumotlarni egallash;

- o'timli va o'timsiz fe'llarning birikishi, ularga misollar keltira olish;

- nisbat, zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, ularning paradigmasini shakllantirish, boshqa shakllar bilan omonim, sinonimlik munosabatiga kirishishini farqlay olish;

- fe'llarning tuzilishi va yasalishi bo'yicha morfem lug'at bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish takomillashtirish. Qo'shma so'zlarning so'z birikmalaridan farqini bilish va ularni gapda ajrata olish va hokazolar.

Tayanch sinflarda fe'l so'z turkumiga oid topshiriqlarni quyidagi shakllarda berish o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi:

1. Berilgan fikrni davom ettiring. Gapingizda tub va yasama fe'llardan foydalaning.

*Ulamolar nazdida vaqt oltinga tengdir. Chunki...*

2. Nutqiy va aqliy faoliyat fe'llari lug'atini yarating.

3. Berilgan sodda fe'llarni qo'shma fe'llarga aylantirib, ular ishtirokida gap tuzing.

*Bermoq, olmoq, tuzmoq, kelmoq, ketmoq, bo'lmoq, qilmoq, bajarmoq.*

Ot so'z turkumi bo'yicha:

- o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchiga ot so'z turkumining muhimlik darajasini hayotiy misollar orqali tushuntirish, uni turli vaziyatlarda qo'llanilishiga namunalar keltirish, ularda bu turkumga kiruvchi so'zlarning imlosi va talaffuzi haqida tasavvur uyg'otish. Bu maqsadni amalga oshirishda o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilgan bo'lishi kerak.

- aniq va mavhum otlar. Misol sifatida narsa-buyumlarni ko'rish, ushlab, o'lchash mumkin bo'lgan so'zlarni aniq otlarga kiritilishi, mavhum otlarning sezgi a'zolarimiz orqali his etish mumkinligi haqidagi ma'lumotlar bo'yicha tasavvur bo'lishi;

- turdosh va atoqli otlar. Turdosh otlar narsa-predmet, shaxs, o'rin, joylarning turini, jinsini, lavozimi va boshqalarni anglatishi, kichik harfda yozilishi, atoqli otlarning atab qo'yilishi, imlosi, ularning turdosh otlardan farqini anglash;

- otlarda kelishik qo'shimchalari. Kelishik shakllarining gapdagi vazifasi, ularning imlosi, boshqa affikslar bilan ma'nodoshligi. Ko'makchilar bilan gapda almashinib qo'llanilishi.

- egalik shakllari. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi shaxsga tegishlilikini aniqlash, egalik qo'shimchalarining imlosi, variantlari ustida ishlash. Shaxsga tegishlilik qaysi qo'shimcha orqali ifodalanayotganini aniqlash.

- otlarning yasalishi mavzusi bo'yicha. Ot turkumidagi so'zlarni shaxs otlari, narsa, o'rin-joy otlari, mavhum va aniq otlarga ajratib ularning tub va yasamaligini aniqlay olish, ularni morfem jihatdan tahlil qilib, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarni aniqlash. Berilgan gapda sodda va qo'shma otlarni bir-biridan ajrata olish. Berilgan qo'shma so'zlarni so'z birikmalariga aylantira olish, ularning ma'nolarini izohlash. "Ot+sifat", "ot+son", "sifat+ot", "ot+fe'l" qolipli qo'shma otlarga misollar keltirish, juftlash va takrorlash (konversiya) usuli bilan hosil bo'lgan yasama otlarni aniqlash, ularning kontekstda qo'llanilishi.

Ot so'z turkumi bo'yicha morfologik bilimlar maksimumiga doir mashq va topshiriqlar quyidagi shakllarda berilishi mumkin:

1. Xayolingizdagi hayotiy uydirmalarga asoslanib kichik ertak tuzing. Unda aniq va mavhum otlardan foydalaning.

2. Turdosh va atoqli otlarning qanday nutqiy vaziyatlarda qo'llanilishini misollar orqali tushuntiring.

3. Atrofimizda bo'layotgan dolzarb muammolarga misollar keltiring. Sizningcha, ushbu muammolarga qanday yechim (lar) bor? Mulohazalaringizni og'zaki ravishda bayon qilib, unda qo'shma va juft otlardan foydalaning.

Sifat so'z turkumi bo'yicha:

- mustaqil so'z turkumlari doirasidagi vazifasi, og'zaki va yozma nutqda qo'llanishi orqali fikrni yanada jozibali, ta'sirchan, xilma-xil yetkaza olish mumkinligi haqida o'quvchilarda tasavvur bo'lishi, izohli lug'at bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish. Shuningdek, ushbu so'z turkumidan ta'lim oluvchi maksimal darajada quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim:

- sifatning so'roqlariga javob bo'la oladigan so'zlar topa olish, ushbu so'zlar bo'yicha gaplar tuzish, matnda asliy va nisbiy sifatlarni farqlay olish;

- sifat darajalari mavzusi bo'yicha:

- o'quvchida daraja kategoriyalari bo'yicha umumiy ma'lumotlar shakllanishi, oddiy va qiyosiy daraja (-roq) ning ma'no tovlanishlarini farqlash, ular ishtirokida matn yaratish, orttirma va ozaytirma daraja shakllarining gapdagi xususiyatlari, vazifalarini aniqlash, ularning imlosi ustida ishlash;

Sifatlarning yasalishi mavzusi yuzasidan:

- sifat yasovchi qo'shimchalar, ularning imlosi tub va yasama sifatlarni ajratish, qo'shma sifatlarni bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, ularning amaliy jihatdan qo'llanilishi ustida ishlash;

- Sifatlarning ma'noviy guruhlari bo'yicha. Xil-xususiyat, rang-tus, maza-ta'm, hajm-o'lchov, makon-zamon, hid sifatlariga oid so'zlarni gapda qo'llash, uslubiyati, grammatik va lug'aviy ma'nolarini aniqlash;

- sifatlarning tuzilishi bo'yicha. Ularning imlosi, o'ziga xos xarakteri, gapdagi ma'no tovlanishlari borasida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish. Sifat so'z turkumi bo'yicha quyidagilarni o'quvchi uchun foydali mashq va topshiriqlar tizimi deyish mumkin:

1. Sinf doshingiz bilan dialogik nutqdan foydalanib yozma muloqot matni tayyorlang. Matningizda sifatning ma'noviy guruhlariga oid so'zlardan foydalaning.

2. Berilgan hikoyani o'qib, so'zlarni tub va yasama sifatlariga ajrating. Ular ishtirok etgan xalq maqollaridan misollar keltirishga harakat qiling (Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasidan parcha keltiriladi).

3. O'zingiz yoqtirgan mashhur ijodkor asaridan namuna keltiring. Undagi sifatarni topib izohlang.

Son so'z turkumi bo'yicha.

- Ushbu turkum borasida quyidagi nazariy hamda amaliy tushunchalarga ega bo'lish o'quvchi uchun foydali bilimlar tizimi sifatida baholanadi:

- son so'z turkumi haqida umumiy ma'lumot. Uning kishilik hayotida tutgan ahamiyati haqida tasavvurning mavjudligi.

- sonning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari, ularning imlosi ustida ishlash;

- tartib son, sanoq, son, dona son, taqsim son, jamlovchi, chama son, kasr sonlarning ma'no qirralarini aniqlash;

- sonning tuzilishiga ko'ra turlari, ularning hosil bo'lishi va nutqda qo'llanilishi yuzasidan manbalar bilan tanishish. Quyida ushbu turkumga doir ta'lim mazmunidan ko'zlangan maqsadni amalga oshiruvchi mashq va topshiriqlardan misollar keltiramiz:

1. Son so'z turkumidan foydalanib o'zingizning tarjimai holingizni tuzing.

2. Bir sonining ko'chma ma'nolarda qo'llanilishiga misollar yozing.

3. Son qatnashgan o'zbek xalq maqollaridan namunalar keltiring.

Ravish so'z turkumi bo'yicha:

- avvalo, sifat va ravish o'rtasidagi farqlarni tushunish, uning boshqa so'z turkumlari bilan aloqasi, tuzilishiga ko'ra turlari, tub va yasama ravishlarni ajrata olish, imlosi va ma'noviy guruhlari haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish. Ravish so'z turkumidan samarali deb topilgan mashq va topshiriqlardan ayrim misollar keltiramiz.

1. O'rin va payt ravishlaridan foydalanib "Hayotimdagi eng quvonchli kun" mavzusida og'zaki matn tayyorlang. Ravishlarning ma'nosiga e'tibor bering.

2. Quyida berilgan ravishlarning o'rniga sinonimlarini qo'yib ko'chiring. Ularning ma'nosida qanday o'zgarishlar bo'lganini izohlang.

*Avvallari onalar go‘daklariga alla aytib uxlatishardi, ammo bugun deyarli har bir avlod go‘yo alla aytish malol keladiganday, bolalarga telefon deb atalmish matohni “ovutish vositasi” sifatida ishlatishadi. Ayting-chi, hayotimizga tezda o‘rnashib olgan ushbu vositadan siz qaysi maqsadlarda foyadalanasiz?*

3. Yuqorida berilgan kichik matnga ravishlardan foydalanib sarlavha tuzing.

Olmosh so‘z turkumi bo‘yicha:

- barcha so‘z turkumlari o‘rnida kela olishi, ortiqcha takrordan chekinish maqsadida qo‘llanilishi, ularni ma‘no turlariga ajratish, olmoshning uslubiyati, tuzilishiga ko‘ra turlarini tasniflash va hokazolardan iborat. Ushbu so‘z turkumi bo‘yicha topshiriqlarni quyidagi shaklda berish mumkin:

1. Audioda berilgan *biz, siz, ular* kishilik olmoshining uslubiy xususiyatlarini tushuntiring (X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asaridan parcha eshittiriladi).

2. Berilgan matnda olmosh asosli so‘zlarni ajrating.

*Abduvalining yoshi ulg‘aygan akasini sensirashi yoqmadi shekilli, unga tanbehona qarab qo‘ydi. To‘g‘ri-da, kechagina koptok o‘ynab hammadan kaltak yeydigan Abduvali, bugun o‘zicha maktab direktori sifatida gerdayib qilgan bu chaqiruv ohangi nafaqat unga balki o‘zgalarga ham g‘alati tuyulmadimikan?*

3. Olmosh boshqa so‘z turkumlari o‘rnida kelishiga misollar (Ushbu topshiriq kichik guruhlarda bajariladi).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kun ta‘lim mazmuni “bilimli” emas, mantiqiy mushohadaga boy bo‘lgan, fikrini erkin, aniq bayon eta oladigan, orttirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy qo‘llay oladigan kelajak avlodni yeishtirish va tarbiyalashga xizmat qilishi kerak. Chunki har qanday zamon o‘z tajribasini faoliyatda qo‘llay oladigan uquvli shaxslarga muhtoj. Bu maqsadni bajaruvchi birinchi obyekt esa albatta, ta‘limdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azimova I. va boshqalar . Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik - Toshkent, 2022.

2. Hamroyev G‘.H. Ona tili ta‘limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. dokt. ...diss. - Toshkent, 2022.

3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi - Toshkent, 2010.

4. Фуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни - Тошкент, Ўқитувчи. 1995.

5. SAIDOV, U. (2023, June). Statistical Description of Professional Terms Given in “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language”. Journal of advanced linguistic studies.

6. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation\\_for\\_view=a2ic-oEAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=a2ic-oEAAAAJ&citation_for_view=a2ic-oEAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)